



BUXORO AMIRLIGINING “KICHIK QIYOMAT”I VA UNDAN OLINADIGAN ZARUR XULOSALAR

Xursanboyeva Feruza Husan qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti

Elektron manzil: fpirimqulova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo xonliklari, xususan, Buxoro amirligining o'z mustamlakasiga aylantirish jarayoni va Buxoro xalqining hasrati, davlatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy tizimiga ko'rsatgan salbiy ta'siri va bu voqealardan olinadigan xulosalar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, "Tarixi nafoe", Mirza Salimbek, Muhammad Ali Baljuvoni, "kichik qiyomat", amir Olimxon, amir Abdulahadxon, qizil armiya, mustaqillik, "Yangi O'zbekiston".

Аннотация: В данной статье рассматривается процесс превращения среднеазиатских ханств, в частности Бухарского эмирата, в колонию Российской империи, тоска народа Бухары, негативное влияние на социально-политическую и культурную систему государства, а также выводы, которые можно сделать из этих событий.

Ключевые слова: Бухарский эмират, «Тарихи нафо», Мирза Салимбек, Мухаммад Али Балджувани, «Малый судный день», эмир Олимхон, эмир Абдулахадхон, Красная армия, независимость, «Новый Узбекистан».

Abstract: This article discusses the process of turning the Central Asian khanates, particularly the Bukhara Emirate, into a colony of the Russian Empire, the longing of the Bukhara people, the negative impact on the state's socio-political and cultural system, and the lessons that can be drawn from these events.



Keywords: Bukhara Emirate, “Tarikhi Nafo”, Mirza Salimbek, Muhammad Ali Baljuvani, “Minor Judgment Day”, Emir Alimkhan, Emir Abdulahadkhan, Red Army, independence, “New Uzbekistan”.

Buxoro amirligi juda katta va boy tarixga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. O'z davrida O'rta Osiyo xonliklari orasida eng kuchli, qudratli, bundan tashqari har jabhada qolgan ikki xonlikka nisbatan yaxshi rivojlangan davlat hisoblangan. Juda ko'plab madaniy markazlari o'z davri uchun nafaqat O'zbek xonliklari, balki qo'shni boshqa davlatlar uchun ham savdo-madaniy markaz vazifasini bajargan.

Buxoroi sharif-bilmoq lozimki, bu shaharni “ilm bog'chasi” deydilar. Buxoro so'zining asl ma'nosi ilmdir. Binobarin, Buxoro deb atashgan. Bu shaharda ulamo, fuzalo, sulaholar ko'pdir. Unga islom markazi deb nom berganlar. “Tarixi mullozoda” [Ahmad bin Muhammad al-Muin al-Fukaro] asarida “Qubbat-ul-islom” deb aytilgan. Bu o'lkaning xalqi juda rahmdil va farishtasifat, musofirdo'st, ilmomuz, nozikfahm, shirinso'zdirlar. Buxoro jannat bo'stonlarining biri, uning qishloqlari zebolikda jannatning ko'shklariga o'xshar, xavzlari ra'nolikda firdavs xavzlariga monand, uning masjid va madrasalari jannat ul-adan qasrlariga o'xshaydi, ulamolari latofatda samarali daraxtlarga o'xshaydi, bu o'lkaning ahli sharofatda farishtalarga monand, devour qal'alari jannatning imoratlari o'xshaydi. Banda, bu o'lkani qancha vasf qilib hamdu sanolar aytsam ham kamlik qiladi, bu risolaga ham sig'maydi.¹ Buxoro qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini, ushbu so'zlardan ham bilishimiz mumkin.

Ammo vaqt o'tib, amirlik siyosiy tizimida inqiroz boshlanadi. Amirlik ishlab chiqarish, fan-texnikada orqada qola boshlaydi. Yevropa XIX asrdayoq sanoat ishlab chiqarishiga o'tgan davrda, Buxoro amirligi XX asrda sanoat ancha sustlasha boshlaydi. Bu esa o'z navbatida boshqa sohalarga ham ta'sir

¹ Muhammad Ali Baljuvoni “Tarixi Nafoiy”. Toshkent. 2001. 9-10-b.



ko'rsatadi. Bu omillar natijasida Rossiya imperiyasi bosqini davrida amirlik kuchsiz ahvolga tushib qoladi. Amirlikdagi amaldorlar ichida poraxo'rlik gullagan edi. Qozi va hokimlar amir va saroy ahliga har yili haddan tashqari peshkash, hadya, tortiq va pora berar edi. Pora beruvchilarning hech qaysisi buni o'z hamyonidan bermagan, balki ikki-uch hissa ortiq qilib aholidan, ayniqsa, dehqonlardan undirganlar. Buxoro hukumatida amirdan tortib kichkina hukumat ma'murigacha tortiq va porani bekor qilishga qarshi bo'lganlar.² Amirning o'zi esa Buxoroda bo'layotgan voqealarga befarq bo'lib, ko'plab vaqtini shahardan tashqarida, chorbog'larda o'tkazgan. Amir Abdulahadxon amirlikni Karmanadan turib boshqargan bo'lsa, amir Olimxon ko'plab vaqtini yozgi saroy Sitorai Mohi Xossada o'tkazgan. Amir Olimxon davrida davlat ishlari to'liq qo'shbegi, qozikalon, raisi kalon va xazinachi qo'lga o'tgan edi. Amir beparvolik qilib, aysh-ishrat bilan yurgan. Mazkur fikrga misol keltiradigan bo'lsak, amirlikdagi amaldorlardan bo'lgan Mirzo Salimbek "Tarixi Salimiy" asarida 1918 yil Buxoro shahrida afg'on harbiy guruhlarining talonchiligi to'g'risida ma'lumot berarkan: "Afg'onlar besh oy davomida Buxoroni har bir uyi, bog'larini talab, odamlarni qiynab, ulardan ot va mol-mulklarini tortib olib, beboshlik va rasvogarchiliklarni amalga oshirishdi. Lekin shu davr ichida arkda turgan amir bunday bedodliklardan xabarsiz edi. Bunday talonchilik va yovuzlikni Buxoro ahli Chingizxon va Xulagu davridan beri ko'rmagan edi."³

Ushbu fikrlarni "Tarixi Nafoi"da ham ko'rishimiz mumkin."Buxoro saltanatining ravnaqi mashhur, lekin siyosati yo'qdir. Vaholanki, podshohlar siyosat ilmini bilishlari lozim bo'lgan. Dushmanga qarshi siyosat qilish bilan birga odamlarning hayotini saqlab qolish darkor. Ming afsus! Davlatimizda

² Abdurauf Fitrat "Amir Olimxonning hukmronlik davri".

³ Mirza Salimbek "Tarixi Salimiy". 212-216-b.



askar-u qurol boru, ammo bu askarda siyosat va jasorat yo`q! Siyosiy hokimlarimiz siyosat tartibidan bebaxradirlar.⁴

Darhaqiqat, o'sha paytda ahvol shu darajaga yetganki, hatto amirlikning markaziy hokimiyatidagilar siyosat ilmidan bexabar bo'lishgan. Holbuki, podsholar siyosatni bilmas ekan, davlat boshqaruvi tamomila izdan chiqqanligini va amirlik tobora yaqinlashib kelayotgan rus bosqiniga qarshi tura olmasligini ko'rsatadi. Amirlikning bu paytda 30 ta hokimligi bo'lib, har bir hokimlikda uch yuzdan mingtagacha nizomiy askari bo'lgan, askarlar o'z vaqtida qurol-yarog' bilan ta'minlangan, ba'zi viloyatlarda to'p va urush qurollari qo'rxonalarda saqlangan. Amirlikning boyliklari haqida gapimasak ham bo'ladi. Chunki, Baljuvoniyning ta'biri bilan aytganda, boshqa davlatlar "Buxorodek bo'lishni orzu qilganlar". Hokimiyatdagilardan talab qilingan narsa esa, oqilona siyosat edi. Afsuski, buni tushinib yetishmadi va Buxoroni ruslarga tamomila mustamlaka davlatga aylantirishdi.

Amir Olimxon bunga qarshi islohotlar loyihasini e'lon qildi. Bu juda quvonarli hol edi. Loyihada amirlikning diniy sohasidan tortib, ta'lim ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohasigacha o'ziga xos bo'lgan islohotlar mavjud edi. O'sha paytda amaldorlar boshboshdoqligiga qarshi ko'tarilgan aholi, ushbu islohotlar e'lon qilingach bosilganini ko'rishimiz mumkin. Lekin ko'p o'tmay bu loyiha bekor qilindi. Amir diniy mutaasiblar qarshiligiga uchradi. O'sha paytda amirlikda diniy mutaasiblik juda kuchli bo'lib, har qanday islohotlar dinga, islomga zid deb e'lon qilinardi. Aholining bor umidi bo'lgan loyiha ham bekor qilingach, aholining hokimiyatga ishonchi qolmaydi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, aynan, XX asr boshlaridagi amirlik ahvoli achinarli holatda bo'lgan. Har qanday islohotlar, dinga zid deb e'lon qilinishi, mamlakatni kapitalistik davlatga aylanishiga to'siq bo'lgan. Aholi esa, bunga

⁴ Muhammad Ali Baljuvoni "Tarixi Nafoiy". Toshkent. 2001. 31-b.



qarshi ma'rifatparvarlar atrofida birlasha boshlashgan. Natijada, davlat ikkiga ajralib qolgan. Amirlikning itimoiy, siyosiy ahvoli tanazzulga yuz tutgan. Bu esa amirlikda o'z hokimiyatini o'rnatishga urinayotgan ruslarga qo'l kelgan. Hokimiyatni birlashtira olmagan ma'sullar "Islom dinining gumbazi", "Islom dinining quvvati" deya ta'rif beriladigan Buxoroda daxshatli voqealar sababchilariga aylanishdi.

Xo'sh tarixda Buxoroda qanday voqealar bo'ldiki, o'sha davrdagilar bu daxshatlarga "Kichik qiyomat" deb nom berishdi? "Tarixi nofoiy" asarida bu voqealar batafsil yoritilgan. "Hijriy 1338 yil zulhijja oyining o'n sakkizinchisi (1920 yil yil 29 avgust) yakshanba kuni Buxoroni bosib olish boshlangan. Ruslar taktik va harbiy texnika ustidan ustun bo'lgan. Ularning 3 ta aeroplani qorovullik qilib, Buxoro shahri ustida uchib yurgan. Yakshanba kechasi Kogonda urishayotgan amirlik sarbozlari rus askarlariga asir tushadilar. Yordamga kelgan 200 nafar afg'on askarlari Qarshi darvozasiga yuboriladi. Yakshanba kuni ular juda ham qattiq urushganlar. Ikki-uchtalari halok bo'lgan. Ikkita to'p yorilgan. Seshanba 31 avgustda og'ir jang davom etib, shu kuni Qarshi darvozasi to'p zarbidan buzilgan. Uning janubidagi 100 gazga yaqin qal'a devori qulab tushgan. Ana shu darvoza yo'lidagi mahallaning yarmi yonib xarob bo'lgan. Unga yondosh ko'p guzarlar ham yonib ketib, ancha odam halok bo'lgan. O'lganlar soni taxminan 2 ming nafardan oshib ketgan. Buxoro askarlari va sarbozlari vazoratpanoh(qo'shbegi) buyrug'i bilan 9 ta oq bayroq ko'tarib, Kogon tomon boradilar. Yo'lda bu askarlar ham o'ldirilgan."⁵

Amir afg'onlar boshlig'idan so'radi: "Jeneral, bu hodisaga iloj qilsa bo'ladimi?". Jeneral o'rnidan turib javob berdi: "Ya amir-al mo'minin Rusiya askarlari Havzi Devonbegi labida hozir jang qilmoqdalar. Xayriyatning iloji yo'qdir, endi jonimizni saqlash uchun o'zimizni bir burchakka olishimiz

⁵ Sodiqov F. "Muhammad Ali Baljuvoniyning "Tarixi Nofey" asari tarixiy manba sifatida"-magistrlik dissertatsiyasi. Toshkent. 2012.



lozim. Jon omon bo'lsa har bir ishning iloji asta-sekin bo'lar. Hozir Sitorai Mohi Xosada 2 millionga yaqin odam bordur", -deb javob qildi. Amir: "Taqdir firoqda ekan", -deb foytunga chiqdi. 5-6 foytun va 2-3 ming nizomiy askar bir-birlari bilan vidolashib, ming dodu faryod bilan qochishga jazm etdilar. O'sha vaqtda ona qiziga, ota o'g'liga rahm etmay, "voy shariatu dinu islom", deb yig'i qildilar."⁶ Deyarli barcha shaharlar, ayniqsa poytaxt Buxoro boy berilgach, amir shaharni tark etishga majbur bo'ladi.

Amir o'ziga sodiq qolganlar bilan birga Buxoroni ruslarga tashlab chiqadi. Shu o'rinda, "o'sha vaqtda ona qiziga, ota o'g'liga rahm etmay", jumlasiga e'tibor qilsak. Qur'oni Karimda qiyomat kuni daxshati shu darajadagi, hatto ota o'g'liga, ona qiziga rahm etmasligi, bir-birlarini tanimasligi keltirib o'tilgan. Darhaqiqat, muallif o'sha kun voqealarini ochiq bayon etar ekan, bekorga buxoroliklar bu kunni "kichik qiyomat", deb atashmagani ma'lum bo'ladi. Asarni davomiga yuzlanamiz: "O'sha chorshanba kuni zulhijjaning 21-kuni edi. Shu kuni amir Vobkantdan o'tib, Xoja Jahonga kirib Abdullaboyvachcha hovlisiga tushdi. Kechasi Qiziltepa ustidagi temiryo'ldan o'tib, Qarshi cho'liga qarab, ikki uch kunda Hisor viloyatining Dexnav shahriga yetdilar. Shu bilan dushmandan najot topdilar. Amirning G'ijduvon va Vobkantga borishiga sabab, uning oilasi Vobkantda ekan. Amir ular bilan xayrlashib ketibdi."⁷

Amir Olimxon keyin Afg'onistonga o'tib ketadi. Bo'lib o'tgan voqealarning hammasida ham amirning aybi bor desak, xato bo'ladi. Amir o'zining ota yurtidan chiqib ketishga majburligini va bundan juda xoli abgor ekanligini uning "Buxoroning hasrati tarixi" asarida ham ko'rishimiz mumkin. Endi, Buxorodagi ahvolga yuzlansak: "Payshanba kuni zulhijjaning yigirma ikkinchisi, sana 1338, milodiy 1920-yilda Rusiya askarlari Buxoro shahriga kirib, poytaxt atrofini bosib oldi. Janglardan so'ng aksar imoratlar va

⁶ Muhammad Ali Baljuvoni "Tarixi Nafoiy". Toshkent. 2001. 65-b.

⁷ Muhammad Ali Baljuvoni "Tarixi Nafoiy". Toshkent. 2001. 66-b.



binolarning yonib vayron bo'lganligi ma'lum bo'ldi. Guzar va ko'chalar to'p zarbi va aeroplan zarbidan xarob bo'libdi.”⁸ Afsuski, o'z davri uchun butun islom olamida shuhrat topgan muqaddas Buxoroi sharif rus askarlari tomonidan vayron qilindi. Tarixan olib qarasak, Buxoro bu yaqinda xali bunchalik vayronagarchilikni, bunday janglari ko'rgan emas. Tarixiy binolar, masjidu madraslar, hukmdor saroylari va oddiy aholining turar joylari ham aqlga sig'mas darajada xarobaga aylangan edi. Bosqin natijasida 34 ta guzar, uch mingdan ortiq do'kon, 20 taga yaqin saroy, 29 ta masjid yonib xarob bo'lgan. Minorai Kalonning bir nech qismlari qulab tushgan. Olimxon madrasasining peshtoqi ham to'p zarbidan buzilib, tashqi darvozasi, darsxona eshiklari yonib ketgan. Miri Arab madrasasining peshtoqi qulab tushgan. Hazrati imom darvozasidan Guzari Nazarchagacha, Kofirobod, O'g'lon darvozasi, masjidi Kalon, Zindondan To'qimdo'zi hammomigacha batamom yonib ketgan. Buxoroning janubidan Mehtari Orif guzarininig uchdan biri, Qarshi darvozasi oldidagi guzarning yarmi, Nahor darvozasining yarim guzari yonib, kultepaga aylangan. Qarshi darvozasi ham yonib ketgan. Ko'plab Buxoroliklarning mol-mulklari yonib ketgan. Ko'p aholi boshqa viloyatlarga ketib qolgan. Shaharda 3 mingga yaqin hovli yonib, kul bo'lgan. Yosh Buxoroliklar shaharga kirib bu ahvolni ko'rib, ancha afsuslanganlar. Buxoro shahri qariyb 20 kun yongan. Yong'inni o'chirish uchun moshinalar olib kelinganligi “Tarixi nafoe”da aytib o'tilgan. Arkdagi qariyb 300 ta imorat to'p o'qi va bombalar zarbidan yonib, ancha qimmatbaho mollar yonib ketgan. 1916 yilda Buxoro shahrida 80 ming aholi bo'lgan bo'lsa, Rus bosqinidan so'ng 60 ming aholi qolgan.

Xulosa

⁸ Muhammad Ali Baljuvoni “Tarixi Nafoiy”. Toshkent. 2001. 70-b.



“Tarixi nafoe” asarida boshqa tarixiy manbalarda yo’q bo’lgan jihatlardan biri, 1920-yil Buxorodagi voqealar to’la bayon etilgani va qizil armiyaning shaharlarda amalga oshirgan vayronagarchiliklari ochiq-oydin bayon etilganidir. Bu jihatlar asarning qimmatligini bildiradi. Ushbu asarda qo’llanilgan “kichik qiyomat” so’zi butun bosqinchilikning holatini ifodalab beradi. Shu darajada xunrezliklar amalga oshirilganki, hatto bu buxoroliklar ta’biriga mos “kichik qiyomat” ekanligini ko’rishimiz mumkin. Shahar 20 kun davomida yonib turganligi, ahvolni qay darajada ekanligini ko’rsatadi. Amir Olimxoning yillar davomida to’plab kelgan o’sha “afsonaviy” boyliklari ham osonlik bilan ruslar qo’liga o’tib ketdi. O’z vaqtida shu boyliklar xalq uchun yoki harbiylarning yangi, zamonaviy qurol-yarog’i uchun ishlatilganida, xazinalarga begonalar osonlik bilan erisha olmasdi. Balkim, buxoroliklarni o’zlari tug’ilib o’sgan yurtlaridan chiqarib yuborgan, ularni farzandlari, uy-joylaridan ayirgan, muqaddas Buxoroi sharifni masjidu madrasalarini vayronaga aylantirgan, tariximizni qora kunlaridan biri bo’lgan “kichik qiyomat” bo’lmasmidi. Afsuski, tarixni o’zgartirib bo’lmaydi. Balki undan to’g’ri xulosa chiqarib, tarixda bo’lgan xatoliklarni takrorlamaslik biz yoshlarning eng kata maqsadimiz bo’lishi kerak. Aslida, tarixni o’rganishdan maqsad ham shunday. O’qigan, o’rganganlardan to’g’ri va zarur xulosalarni chiqarish-tarixni bilish demakdir. Bugungi mustaqil, ozod va obod “Yangi O’zbekistonda” tarixdagi voqealardan zarur xulosalarni chiqarib, zamon bilan hamnafas holda rivojlanish, mamlakatimizni rivojlangan davlatlar qatorida bo’lishini ta’minlash har bir o’zbekistonlikning burchidir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Agar mendan sizni nima qiynaydi?” deb so’rasangiz, farzandlarimizning ta’lim va tarbiyasi deb javob beraman”, - degan so’zlari bizni har lahza ruhlantirib turadi. Shunday ekan, biz yoshlar doimo o’qib, o’rganib, vatanimiz rivojiga hissa qo’shishimiz kerak. Zero, “O’zbekiston kelajagi yoshlar qo’lida” dir!



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurauf Fitrat "Amir Olimxonning hukmronlik davri".
2. Ahmad bin Muhammad al-Muin al-Fukaro "Tarixi Mullazoda". Tehron. 1991.
3. Mirza Salimbek "Tarixi Salimiy" .
4. Muhammad Ali Baljuvoni "Tarixi Nafoiy" . Toshkent. 2001.
5. Sodiqov F. "Muhammad Ali Baljuvoniyning "Tarixi Nofei" asari tarixiy manba sifatida"-magistrlik dissertatsiyasi. Toshkent. 2012.